



2016-yil 26-yanvar

2015 yilning yakunlari bo'yicha "O'zkiyosanoat" AJ korxonalari faoliyati to'g'risida

2015 yilning yanvar-dekabr oylarida "O'zkiyosanoat" korxonalarida 2187,5 mlrd. so'mlik tovar mahsulot (o'sish sur'ati 108%) hamda 185 mlrd. so'mlik xalq iste'mol mollari (o'sish sur'ati 117,6%) ishlab chiqarildi.

Sof holda 1234,38 ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan 942,72 ming tonna azotli o'g'itlar, 148,42 ming tonna fosforli o'g'itlar va 143,24 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq 2015 yil yanvar-dekabr oylarida 248,6 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi (prognoz 244,2 mlrd.so'm).

2015 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida "O'zkiyosanoat" AJ korxonalari tomonidan 222,9 mln.dollar hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi va prognoz 122,6%-ga bajarildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalarga binoan 208 mlrd.so'mlik mahsulot kompaniya korxonalari tomonidan sotib olindi.

335 yangi ish o'rni, shu jumladan kasanachilik asosida 54 ish o'rni yaratildi.

Xududiy «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatlaridagi mavjud texnikalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalariga 2015 yil yanvar-dekabr oylari davomida 53792,2 mln.so'mlik agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, 8740,3 mln.so'mlik 478,9 ming tonna kompost tayyorlandi va sotildi, 380,9 ming tonna organik va 622 ming tonna mineral o'g'itlar fermer xo'jaliklari ekin maydonlariga yetkazib berildi. 1006,9 ming gektar g'alla va paxta maydonlarida mineral o'g'itlar sepilib, suspenziya tadbirlari o'tkazildi.

"O'zkiyosanoat" AJ matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/indicators/itogi2015>